



UDK: 1751

Dilafuz OTAMURODOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi
E-mail: otamurodovadilafuz@gmail.com

O'zDJTU dotsenti, PhD I.Turamuratova taqrizi asosida

DIALOGNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA QO'LLANILISHINING MANTIQUIY VA FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda dialog tushunchasining man-tiqiy va falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Dialog nafaqat kommunikativ birlik sifatida, balki tafakkur, ma'no yaratilishi va ijtimoiy ong shakllanishining muhim modeli sifatida o'rganiladi. Tadqiqotda mantiqiy tahlil tamoyillari, intersubektivlik va nutq faoliyatining hermenevtik talqini asosida dialogning mohiyati yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy lingvistik paradigmalarda (pragmatika, diskurs tahlili, kognitiv tilshunoslik) dialogik tafakkurning o'rni va uning semantik hamda ontologik darajadagi ifodalanish mexanizmlari izohlanadi. Maqola dialogni inson tafakkuri va madaniy tafavutlarni ifodalovchi universal fenomen sifatida yondashadi.

Kalit so'zlar: Dialog, zamonaviy tilshunoslik, mantiqiy struktura, falsafiy asos, intersubektivlik, semantika, diskurs, kognitiv yondashuv.

LOGICAL AND PHILOSOPHICAL FEATURES OF THE USE OF DIALOGUE IN MODERN LINGUISTICS

Annotation

This article examines the logical and philosophical foundations of the concept of dialogue within modern linguistics. Dialogue is approached not merely as a communicative unit but as a cognitive and social model through which meaning, reasoning, and collective consciousness are formed. The study interprets dialogue from the perspectives of logical analysis, intersubjectivity, and hermeneutic linguistics, emphasizing its role in contemporary linguistic paradigms such as pragmatics, discourse analysis, and cognitive linguistics. Furthermore, the paper elucidates the semantic and ontological mechanisms that underlie dialogic thinking, highlighting dialogue as a universal phenomenon reflecting human cognition and cultural diversity.

Key words: Dialogue, modern linguistics, logical structure, philosophical foundation, intersubjectivity, semantics, discourse, cognitive approach.

ЛОГИЧЕСКИЕ И ФИЛОСОФСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИАЛОГА В СОВРЕМЕННОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются логические и философские основы использования диалога в современном языкознании. Диалог анализируется не только как коммуникативная единица, но и как когнитивно-социальная модель формирования смысла, мышления и коллективного сознания. Исследование опирается на принципы логического анализа, intersubjectivity и герменевтического подхода к речевой деятельности. Особое внимание уделяется роли диалогического мышления в современных лингвистических парадигмах — прагматике, дискурс-анализе и когнитивной лингвистике. В статье раскрываются семантические и онтологические механизмы проявления диалога, который рассматривается как универсальный феномен человеческого познания и культурной коммуникации.

Ключевые слова: Диалог, современное языкознание, логическая структура, философские основы, intersubjectivity, семантика, дискурс, когнитивный подход.

Kirish. Tilshunoslik fanining so'nggi o'n yilliklarda yuzaga kelgan paradigmalar o'zgarishlari natijasida nutq jarayoni va muloqot hodisalariga antroposentrik, kognitiv hamda interaktiv yondashuvlar keng tarqaldi. Shu nuqtayi nazardan, dialog tushunchasi nafaqat kommunikativ birlik, balki inson tafakkuri, bilish faoliyati va ijtimoiy ongning shakllanish mexanizmini aks ettiruvchi falsafiy-kognitiv model sifatida tadqiq yetilmoqda. Tilning dialogik tabiati haqida ilk falsafiy g'oyalar Platonning "Dialoglar" asarlarida, keyinchalik yesa M. Bax-tin, H.-G. Gadamer, J. Derrida, P. Grays va boshqa olimlarning ishlanmalarida yanada chuqurroq nazariy asosga yega bo'ldi. Bax-tinning "dialogizm" konsepsiyasida nutq har doim boshqa onga murojaat qiluvchi, ya'ni insonlararo mavjudlikning shakli sifatida talqin qilinadi. Shu bois dialog tahlili zamonaviy tilshunoslikda pragmatika, diskurs tahlili, sotsiokognitiv yondashuvlar hamda semantik modellarni

uyg'unlashtiruvchi interdisiplinar yo'nalish sifatida yetirof yetiladi.

Zamonaviy kommunikatsion muhitda (raqamli tarmoqlar, mediaviy diskurslar, multimodal muloqot) dialogning funksional imkoniyatlari kengayib, o' ma'no yaratilishi, subyektlararo muloqot va ijtimoiy identifikatsiya jarayonlarini ifodalovchi universal mexanizmga aylanmoqda. Shu bilan birga, dialogik nutqning mantiqiy tuzilishi, semantik o'zaro bog'liqliklari va falsafiy mohiyatini tahlil yetish tilshunoslikda tafakkur va tilning ontologik birligi masalasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Maqolaning dolzarbli shundan iboratki, u dialog fenomenining mantiqiy-strukturaviy va falsafiy-ontologik xususiyatlarini zamonaviy tilshunoslik paradigmalarini asosida yoritish, shuningdek, nutqiy faoliyatning intersubektiv mohiyatini aniqlashga qaratilgan. Bu yondashuv tilni faqat

belgilar tizimi sifatida yemas, balki fikr, ong va madaniyat o'rtasidagi faol muloqot maydoni sifatida o'rganish zaruratini ko'rsatadi.

Har bir xalqning moddiy, ma'naviy, diniy, axloqiy va ijtimoiy-madaniy tuzilishi bilan ular foydalanadigan til o'rtasida zaruriy va muqarrar bog'liqlik mavjud. Boshqacha aytganda, mushtarak madaniyat va sivilizatsiya mahsuli bo'lgan tilda xalqlar ruhi, o'ziga xosligi, ong-u shuuri aniq aks yetadi. Til madaniyatning yeng muhim tashuvchisi va uzatuvchisi bo'lsa-da, bu jarayondan yeng ko'p yana tilning o'zi ta'sirga uchraydi. Chunki tilni oziqlantiruvchi, ko'paytiruvchi, davolovchi, o'zgartiruvchi, turli ma'no qatlamlarining shakllani-shini ta'minlovchi ijtimoiy madaniyatdir[1]. Shuning uchun madaniyat-yatshunoslik va tilshunoslik o'rtasida muhim va sezilarli parallellik mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Dialog hodisasining ilmiy talqini XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning mustaqil tahlil yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Shu davrda tilni faqat strukturaviy tizim sifatida yemas balki inson tafakkuri, bilish jarayoni va ijtimoiy muloqot faoliyatining integratsion shakli sifatida talqin yetish g'oyalari kuchaydi [1]. Bu yondashuv avvalo, L. Vygotskiy, J. Habermas, YE. Benvenist, K. Buhler, T. Givon kabi olimlarning ishlanmalarida nazariy asosga yega bo'ldi.

YE. Benvenist til tizimini "men" va "sen" o'rtasidagi o'zaro murojaatning Grammatik asoslari orqali tushuntiradi. Uning fikricha, har qanday tildagi shaxs kategoriyasi dialogic muloqotning mohiyatini belgilaydi, chunki "men" o'z ma'nosini "sen" ning mavjudligi orqali oladi [2]. Bu yondashuv tilni subyektiv va intersubyektiv voqelik sifatida tushunishning kognitiv-falsafiy asosini yaratadi.

Kognitiv yo'nalishda yesa, G. Lakoff va M. Johnsonning metaforik tafakkur haqidagi ishlari dialogning ma'no yaratuvchi tabiati bilan uzviy bog'liqdir. Ularning tadqiqotlarida muloqot jarayoni inson ongidagi konseptual metaforalar tizimi orqali tashkil topadi, bu yesa dialogni fikr almashinuvi yemas, balki haqiqatni konseptual konstruksiya qilish jarayoni sifatida tushuntirish imkonini beradi.

So'nggi yillarda digital pragmatika va multimodal kommunikatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar raqamli muhitda dialogning yangi shakllarini o'rganmoqda. Internet forumlari, sun'iy intellekt tizimlari va ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot modellari an'anaviy dialog tushunchasini qayta talqin qilib, inson-mashina dialogi, virtual intersubyektivlik va algoritmik semantika kabi yangi tushunchalarni ilmiy muomalaga kiritmoqda [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy tilshunoslikda dialog fenomenining mantiqiy, falsafiy va kognitiv asoslarini aniqlashga yo'naltirilgan. Mazkur maqolada hermenevtik tahlil, pragmatic yondashuv, diskurs va semantic struktura tahlili metodlari uyg'un holda qo'llanildi. Namuna sifatida zamonaviy badiiy va ilmiy matnlardagi dialogic birliklar tanlanib ularning strukturaviy-mantiqiy tuzilishi, semantic o'zaro bog'liqligi hamda falsafiy mazmun hosil qilishdagi funksiyasi o'rganildi.

Tadqiqotda shuningdek, dialogic fikrlashning intersubyektiv mohiyatini ochib berish maqsadida til birlillari orasidagi ma'no almashinuvi, nutqiy pozitsiyalar muvozanati va muloqot mantig'i tizimi tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida mantiqiy tahlil, semantic modellash va kognitiv interpretatsiya usullari birgalikda qo'llanib, dialogning zamonaviy tilshunoslikdagi nazariy modelini yaratishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy tilshunoslikda dialog hodisasi nafaqat kommunikativ jarayonning shakli sifatida, balki tafakkur va ma'no hosil qilishning mantiqiy-falsafiy mexanizmi sifatida ham talqin qilinadi, chunki har bir dialogic

birlik o'z ichida illokutsion maqsad va semantic implikasiyani birlashtiradi [4]. Shu bilan birga, mazmunning shakllanishi nutq ishtirokchilarining aksiologik pozitsiyasi va yepistemic niyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon dialogni rational-subyektiv tafakkurning dinamik ifodasiga aylantiradi.

Falsafiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, dialog tafakkurning dialektik mohiyatini ochib beradi, chunki qaram-qarshi fikrlarning to'qnashuvi orqali haqiqatga yaqinlashish mexanizmi yuzaga keladi; bu yesa M. Baxtinning "Dialogizm" va H. G. Gadamerning "Muloqot orqali tushunish" g'oyalarini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Shu tarzda dialog nafaqat axborot uzatish vositasi, balki haqiqatning ijtimoiy-kognitiv konstruksiyasi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi [5].

Dialogizm tuzil alarda konseptual metaforalar va semantic ramzlar orqali inson tafakkurida ma'no konstruksiyasi yuzaga keladi, bu jarayon yesa til vositasida intersubyektiv ong faoliyati sifatida obyektivlashadi. Shu bilan birga, har bir dialogic birlikdagi semantic gradiyent-ya'ni ma'noning darajali o'zgarishi-nutqning dinamikasini belgilab, uning mantiqiy izchilligini ta'minlaydi.

Diskurs tahlil shuni ko'rsatadiki, zamonaviy kommunikatsion kontekstda dialog madaniy identifikatsiya, ijtimoiy roller va bilim almashinuvinin markaziy vositasiga aylanmoqda, chunki uning Grammatik va pragmatic ko'rsatkichlari (so'roq shakllari, murojaat birliklari, modallik ifodalari) nutq ishtirokchilarining mantiqiy pozitsiyalari va yepistemic niyatlarini aniq ifodalash imkonini beradi [6]. Shu nuqtai nazardan, dialog nafaqat lingvistik tizimning static yelemeni, balki fikr, til va ongning o'zaro uzviy bog'liqligini aks yettiruvchi integrative model sifatida ko'rinadi.

Zamonaviy tilshunoslikda dialogni o'rganish- nutqiy birliklarning izchilligi, sabab-oqibat aloqalari va semantic bog'lanishlari orqali mantiqiy tizimni, shuningdek, intersubyektivlik, dialektika va tushunish fenomenologiyasi orqali falsafiy asoslarni ochib berishning samarali vositasidir [7]. Shu bilan birga, dialog zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ma'no yaratuvchi, ong va tilni birlashtiruvchi konsept sifatida ilmiy ye'tiborni talab yetadi.

Xulosa va takliflar. Til, madaniyat va inson uchligini birgalikda o'rganish zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlarining, ayniqsa, lingvomadaniyatshunoslikning asosini tashkil qiladi. Antroposentrik – inson markazli paradigma xalqlarning madaniyatiga kirib borishda tilshunoslar uchun yangi "yeshik" vazifasini bajarmoqda. Bu yeshikning asosiy "kaliti" yesa konsept hisoblanadi. Konsept insonni va tabiatni o'rganuvchi har bir fan sohasining asosiy terminlaridan biri hisoblanadi. Uni matematikadan tortib psixologiyagacha, sotsiologiyadan tilshunoslikkacha bo'lgan har bir fan sohasida uchratish mumkin. Biroq lingvomadaniyatshunoslik uchun har qanday yemas, balki aynan madaniy konsept asosiy o'rinda turishini unutmaslik lozim. Chunki xalqlarning madaniyati tildagi madaniy konseptlardagina namoyon bo'ladi.

Zamonaviy tilshunoslikda dialogning o'rni tilning faqat kommunikativ funksiyasi bilan chegaralanmay, balki inson tafakkuri, ijtimoiy ong va kognitiv jarayonlarning murakkab o'zaro ta'sirini aks yettiruvchi falsafiy kategoriya sifatida talqin qilinmoqda. Dialogiklik fenomeni tilni faqat aloqa vositasi yemas, balki ma'no yaratuvchi dinamik tizim sifatida tushunish imkonini beradi. Shuning uchun ham til va tafakkur o'rtasidagi ontologik bog'liqlikni tahlil qilishda dialogning mantiqiy tuzilmalari alohida metodologik ahamiyat kasb yetadi.

Tilshunoslikda dialogning mantiqiy asoslari formal mantiq, semiotika va nutq aktlari nazariyasi bilan uyg'unlashgan holda, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ma'no almashinuvi struktural va pragmatik jihatdan tahlil yetish imkonini beradi. Falsafiy nuqtai nazardan yesa dialog — insoniy mavjudlikning asosiy shakli, haqiqatning

intersub'yektiv tarzda shakllanish maydoni sifatida qaraladi. Shu jihatdan zamonaviy dialogshunoslik, bir tomondan, Bakhtin, Gadamer va Habermasning g'oyalari bilan mushtarak falsafiy asosga yega bo'lsa, ikkinchi tomondan, lingvopragmatika, diskurs nazariyasi va kognitiv tilshunoslik yutuqlari bilan boyimoqda.

Natijada, zamonaviy tilshunoslikda dialogni o'rganish inson tafakkurining reflektiv tabiatini ochish, tilning ijtimoiy

va aksiologik funksiyalarini talqin qilish hamda kommunikativ hodisalarning falsafiy mohiyatini anglashga xizmat qiluvchi integrativ yondashuv sifatida shakllanmoqda. Bu yesa tilshunoslikni nafaqat yempirik fan, balki insoniyat tafakkurining mantiqiy va ontologik asoslarini tahlil yetuvchi falsafiy yo'nalishga aylantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova M.N. Tilshunoslikda muloqot va dialog nazariyasi., Toshkent:Fan va texnologiya, 2014,212 b.
2. Amonov U. M. Nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiya., Toshkent :O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015, 198 b.
3. Bozorov E. T. Til va tafakkur dialektikasi: nazariy va amaliy asoslar., Samarqand:SamDU nashriyoti., 2013, 236 b.
4. Ahmedova, M. R. Diskurs va dialog: lingvopragmatik tahlil., Toshkent: Universitet, 2021, 226 b.
5. Bekmurodov, A. J. Tilshunoslikda kommunikativ yondashuv., Toshkent: Fan, 2010, 215 b.
6. Bobomurodova, N. S. Dialogik nutqning psixolingvistik xususiyatlari., Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2022, 198 b.
7. Hasanov, A. R. Muloqot va madaniyat: til falsafasiga kirish., Toshkent: Fan va texnologiya, 2012, 244 b.
8. Jo'raqulov, D. A. Tilning mantiqiy tuzilmasi va semantik qatlamlari., Samarqand: SamDU nashriyoti, 2016, 210 b.
9. Madrahimov, O. I. Dialog nazariyasi: kommunikativ va falsafiy yondashuvlar., Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019, 276 b.
10. Murodova, D. H. Zamonaviy tilshunoslikda kognitiv va pragmatik yondashuvlar., Toshkent: Fan, 2020, 250 b.
11. Niyozova, L. R. Til, ong va ijtimoiy muloqot falsafasi., Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2015, 222 b.
12. Qayumov, B. S. Til va tafakkur tizimi: metodologik yondashuvlar., Toshkent: Fan va texnologiya, 2017, 208 b.
13. Raxmonova, Z. M. Dialog madaniyati va muloqot etikasi., Qarshi: Nasaf, 2021, 198 b.
14. To'xtasinov, A. J. Tilshunoslikda semantik va mantiqiy tahlil metodlari., Toshkent: Universitet, 2013, 234 b.
15. Usmonov, A. E. Dialog va intersub'yektivlik muammosi., Toshkent: Fan va texnologiya, 2022, 238 b.